



ZAMONAVIY TA'LIM SHAROITIDA MAKTAB O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILI O'QITISHNING SAMARALI USULLARI.

Baxtiyorova Muxlisa

Turon Universiteti Andijn filiali

FTO' ingliz tili 103-guruh talabasi

Supervisor: **Mirzayeva Irodaxon Xamdamovna**

Annotatsiya: Ushbu maqola maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning samarali usullari va metodlarini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqot jarayonida til o'rgatishda kommunikativ yondashuv, interektiv metodlar, o'yinlar, motivatsiya vositalarining samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, yosh o'quvchilarning kompetensiyasini rivojlantirishda o'qituvchining roli, pedagogik texnologiyalaridan foydalanish, dars jarayonini optimallashtirish va o'quv faoliyatini individuallashtirishning amaliy yo'llari ko'rsatiladi. Tadqiqot metodikasi sifatida kuzatuv, so'rovnoma va tajriba metodlaridan foydalanadi. Natijalar maktablarda ingliz tilini o'qitish jarayonini yanada samarali qilish va o'quvchilarning chet tilini o'zlashtirish darajasini oshirishga xizmat qiladi, shuningdek, pedagoglarga dars jarayonida innovatsion metodlarni joriy etishda amaliy tavsiyalar beradi.

Abstract: This article is devoted to the study of effective methods and techniques for teaching English to schoolchildren. In the course of the research, the effectiveness of the communicative approach, interactive methods, games, and motivational tools in language teaching was analyzed. Also, the role of the teacher in developing the language competence of young students, the use of pedagogical technologies, practical ways to optimize the teaching process and individualize learning activities were shown. Observation, questionnaire and experimental methods were used as research methodologies. The results serve to make the teaching process of English in schools more effective and increase the level of students' mastery of a foreign language, and also provide teachers with practical recommendations for introducing innovative methods in the teaching process.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению эффективных методов и техник обучения английскому языку школьников. В ходе исследования проанализирована эффективность коммуникативного подхода, интерактивных методов, игр и мотивационных инструментов в обучении языку. Также показана роль учителя в развитии языковой компетенции учащихся, использование педагогических технологий, практические способы оптимизации учебного процесса и индивидуализации учебной деятельности. В качестве методологии исследования использовались наблюдение, анкетирование и экспериментальные методы. Результаты служат для повышения эффективности обучения английскому языку в школах и повышения уровня владения иностранным языком у учащихся, а также предоставляют учителям практические рекомендации по внедрению инновационных методов в учебный процесс.



Kalit so'zlar: *Kalit so'zlar: ingliz tilini o'qitish, kommunikativ kompetensiya, interaktiv metodlar, motivatsiya, pedagogik texnologiya, chet tilini o'zlashtirish, samarali ta'lim, maktab ta'limi.*

Keywords: *English language teaching, communicative competence, interactive methods, motivation, pedagogical technology, foreign language acquisition, effective education, school education*

Ключевые слова: *преподавание английского языка, коммуникативная компетентность, интерактивные методы, мотивация, педагогические технологии, освоение иностранного языка, эффективное образование, школьное образование*

Bugungi kunda ingliz tili xalqaro aloqada eng ko'p qo'llaniladigan tillardan biri hisoblanadi. Maktab yoshidagi o'quvchilar uchun ingliz tilini samarali o'rgatish ularning ta'lim sifatini oshirish, kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va global bilim olamiga kirish imkonini beradi. Shu sababli maktablarda til o'qitish jarayonida samarali metodlarni qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Ko'plab maktablarda ingliz tili darslarida o'quvchilarning faolligi yetarli darajada emas, va tilni amaliy qo'llash imkoniyatlari cheklangan. Shu bois, dars jarayonini interaktiv, qiziqarli va o'quvchilar darajasiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqola maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishda samarali metod va usullarni aniqlash, ularning til o'zlashtirish jarayoniga ta'sirini o'rganish, hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Ingliz tilini o'rganish maktab o'quvchilari uchun juda muhimdir, chunki bu til nafaqat xalqaro muloqot vositasi, balki kelajakda kasbiy va shaxsiy rivojlanish uchun zarur ko'nikmalarni shakllantiradi. Maktablarda chet tilini o'qitishning asosiy maqsadi – o'quvchilarda til bilimini rivojlantirish, muloqot qilish qobiliyatini oshirish va tilga oid ko'nikmalarni shakllantirishdir. Ilmiy tadqiqotlar (Ismoiljon Abdumutallibovich Nishonov, 2021; S. Saidov va boshqalar, 2012) shuni ko'rsatadiki, samarali metodlar va innovatsion yondashuvlarni qo'llash darslarning sifatini oshirish va o'quvchilarning til o'rganish samaradorligini kuchaytirishga yordam beradi. Shu bois, maktab o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishda samarali usullarni aniqlash va amaliyotda qo'llash dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu maqolada maktab o'quvchilarga ingliz tilini o'qitishning samarali usullari, darslarda qo'llaniladigan metodlar va innovatsion texnologiyalar, shuningdek, o'quv jarayonida tilga oid ko'nikmalarni rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi. O'quvchilarni ingliz tilini o'rgatishda turli metodikadan foydalanish mumkin, misol uchun : Yosh xususiyatlarini hisobga olish

Maktab o'quvchilari, ayniqsa quyi sinflarda, tilni o'yin va qiziqarli mashg'ulotlar orqali tezroq o'zlashtiradi. Shuning uchun dars jarayonida didaktik o'yinlar, rasmlar, kartochkalar, qo'shiqlar va qisqa dialoglardan foydalanish samarali natija beradi. Yuqori sinflarda esa muammoli vaziyatlar, munozara va loyiha ishlari ko'proq qo'llaniladi.

To'rt ko'nikmani uyg'un rivojlantirish ya'ni ingliz tilini o'qitishda tinglab tushunish (listening), o'qish (reading), yozish (writing) va gapirish (speaking) ko'nikmalari birgalikda.





rivojlantirilishi zarur. Faqat grammatika yoki test ishlash bilan cheklanib qolish o'quvchining kommunikativ salohiyatini to'liq shakllantirmaydi.

Differensial yondashuv -har bir o'quvchining qobiliyati va tilni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'ladi. Shu sababli kuchli o'quvchilar uchun murakkabroq topshiriqlar, qiynalayotgan o'quvchilar uchun esa soddaroq va ko'maklashuvchi mashqlar berilishi maqsadga muvofiq.

Motivatsiyani oshirish-til o'rganishda motivatsiya juda muhim omildir. O'qituvchi darsni hayotiy misollar, chet el madaniyati, qiziqarli faktlar va zamonaviy mavzular bilan boyitsa, o'quvchilarning qiziqishi ortadi. Rag'batlantirish, ijobiy baholash va qo'llab-quvvatlash ham muhim rol o'ynaydi.

Baholashning zamonaviy usullari , an'anaviy yozma nazorat ishlari bilan bir qatorda og'zaki suhbat, loyiha himoyasi, prezentatsiya va portfoliolar orqali baholash ham samarali hisoblanadi. Bu o'quvchining real bilim va ko'nikmalarini aniqlashga yordam beradi.

Ona tili bilan qiyosiy o'rganish - ba'zi grammatik mavzularni tushuntirishda ona tili bilan qiyoslash usuli o'quvchilarga mavzuni tezroq anglashga yordam beradi. Ammo dars jarayonida ingliz tilidan ko'proq foydalanish tavsiya etiladi.

Xulosa qilib aytganda, maktab o'quvchilariga ingliz tilini o'qitish jarayoni zamonaviy pedagogikaning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ta'lim samaradorligi, avvalo, kommunikativ yondashuv, interaktiv metodlar va innovatsion texnologiyalarni tizimli ravishda qo'llash bilan belgilanadi. Shuningdek, o'quvchilarning yosh, psixologik hamda individual xususiyatlarini inobatga olish ta'lim jarayonining natijadorligini oshiradi.

Til ko'nikmalarini kompleks rivojlantirish, ya'ni tinglab tushunish, o'qish, yozish va so'zlash malakalarini uyg'un holda shakllantirish o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Foydalangan adabiyotlar:

- 1.Nishonov, I. A. (2021). Chet tilini o'qitishning zamonaviy metodikasi va samarali yondashuvlari. Ilmiy maqola.
- 2.Saidov, S., va boshqalar. (2012). Chet tillarni o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
- 3.Jalolov, J. J. (2012). Chet til o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi.
- 4.Passov, E. I. (2000). Kommunikativ metod asoslari. Moskva.
- 5.Ziyo.uz

